



O'LCHOV BIRLIKLARINI KOGNITIV TALQIN QILISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Djabbarov Sherzod Xalikulovich,

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD.

Tel.: +998902967227

E-mail: sjabbarov1980@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1755>

MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 3

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kognitiv lingvistika, o'lchov birliklari, integrativ yondashuv, konseptual metafora, freym semantikasi, kognitiv grammatika, kategoriyalash, konseptualashtirish

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada o'lchov birliklari va o'lchov ma'nosini bildiruvchi ifodalarni kognitiv jihatdan o'rganishda integrativ yondashuvning zarurati asoslanadi. Tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi shundan iboratki, tabiiy tildagi o'lchov birliklari faqat aniq miqdor, masofa yoki hajmi ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Ular nutqda yaqinlik, uzoqlik, daraja, intensivlik, vaqtning subyektiv kechishi va ijtimoiy ustunlik kabi mavhum munosabatlarni ifodalashda ham ishtirok etadi. Shu sababli bunday birliklarning ma'nosini faqat bitta nazariya doirasida sharhlash ko'p hollarda yetarli natija bermaydi. Maqolada Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi, Fillmorning freym semantikasi, Lakoffning kategoriyalash haqidagi qarashlari hamda Langackerning kognitiv grammatikasi o'zaro qiyoslanib, ularning o'lchov leksikasini tahlil qilishdagi vazifalari belgilandi. Tadqiqot tavsifiy, qiyosiy, konseptual va freym tahlili usullariga tayandi. Tahlil natijasida o'lchovga oid birliklarni o'rganishning to'rt bosqichli modeli taklif etildi: avval birlikning tajribaviy asosi aniqlanadi, keyin mavhum ma'noga o'tish yo'li ko'rsatiladi, undan so'ng ifoda faollashtiradigan bilimlar majmui tiklanadi va nihoyat mazmunning grammatik hamda kontekstual shakllanishi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv turli nazariyalarni bir matnda sanab o'tish emas, balki ularning izohlash imkoniyatlarini bir-birini to'ldiradigan bosqichlarga joylashtirishdir. Bunday yondashuv ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov birliklarining bevosita, ko'chma va kontekstga bog'liq ma'nolarini izchil talqin qilish uchun qulay nazariy asos yaratadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 3

KEYWORDS

cognitive linguistics, measurement units, integrative approach, conceptual metaphor, frame semantics, cognitive grammar, categorization, conceptualization

ANNOTATION

This article substantiates the necessity of an integrative approach to the cognitive study of measurement units and expressions conveying measurement meanings. The starting point of the study is the assumption that measurement units in natural language are not limited to expressing precise quantities, distances, or volumes. In actual discourse, they can also be used to convey abstract relations such as proximity, distance, degree, intensity, the subjective perception of the passage of time, and social superiority. Therefore, interpreting the meanings of such units within the framework of a single theory is often insufficient. The article compares Lakoff and Johnson's Conceptual Metaphor Theory, Fillmore's Frame Semantics, Lakoff's views on categorization, and Langacker's Cognitive Grammar, identifying the specific functions of each approach in the analysis of measurement-related vocabulary. The study employs descriptive, comparative, conceptual, and frame-analysis methods. As a result of the analysis, a four-stage model for examining measurement-related units is proposed: first, the experiential basis of a unit is identified; second, the pathway through which it develops an abstract meaning is determined; third, the body of knowledge activated by the expression is reconstructed; and finally, the grammatical and contextual formation of its meaning is analyzed. The analysis demonstrates that an integrative approach does not simply mean listing different theories within a single study; rather, it involves organizing their explanatory capacities into complementary analytical stages. Such an approach provides a suitable theoretical foundation for the systematic interpretation of literal, figurative, and context-dependent meanings of measurement units in English and Uzbek.

Kirish

Kognitiv lingvistikaning rivojlanishi tilshunoslikda ma'no masalasiga bo'lgan qarashlarni sezilarli darajada o'zgartirdi. Til endi faqat ichki qoidalar asosida ishlaydigan yopiq tizim sifatida emas, insonning olamni idrok etishi, tajribani tartibga solishi va uni til vositalari orqali ifodalashi bilan bog'liq hodisa sifatida o'rganilmoqda. Evans va Green (2006) kognitiv lingvistika doirasidagi turli nazariy yo'nalishlarni sharhlar ekan, ularni birlashtirib turadigan asosiy tamoyilni til tuzilishi bilan insonning umumiy bilish faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikda ko'radi. Shu ma'noda kognitiv lingvistika bitta qat'iy nazariya emas, balki ma'no hosil bo'lishining turli tomonlarini o'rganadigan, biroq umumiy ilmiy qarashlarga tayanuvchi konseptsiyalar majmuasidir.

Daslab bu konseptsiyalar ko'proq mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi. Konseptual metafora nazariyasi konkret tajriba yordamida mavhum tushunchalar qanday anglanishini izohlashga e'tibor qaratdi. Freym semantikasi so'z ma'nosini u bilan bog'langan fon bilimlaridan ajratib bo'lmashligini ko'rsatdi. Kognitiv grammatika grammatik shaklni ma'nodan alohida formal qurilma deb emas, balki voqeilikni muayyan tarzda ko'rish va taqdim etish vositasi deb talqin qildi. Lakoffning kategoriyalashga oid tadqiqotlari esa til va tafakkurdagi kategoriyalar har doim qat'iy chegaralangan sinflardan iborat emasligini, ko'plab kategoriyalar markaziy va periferik a'zolar asosida tashkil topishini asoslab berdi (Lakoff, 1987; Langacker, 1987).

Ushbu nazariyalarning har biri o'z oldiga aniq ilmiy vazifa qo'ygan va shu vazifani bajarishda katta izohlash kuchiga ega. Muammo ularning birortasi "noto'g'ri" ekanida emas. Aksincha, ma'noning o'zi ko'p qatlamli hodisa bo'lgani uchun bir nazariya ochib bergan jihat ikkinchi nazariyada boshqa nuqtadan yoritiladi. Masalan, konseptual metafora bir tajriba sohasidan ikkinchi sohaga o'tishning umumiy yo'lini ko'rsatadi, biroq konkret ifoda qaysi vaziyat haqidagi bilimlarni ishga solayotganini batafsil tavsiflamaydi. Freym semantikasi anyan shu bilimlar tuzilishini ochib beradi, lekin u har doim ham domenlar o'rtasidagi ko'chish qanday paydo bo'lganini izohlashni o'z vazifasi deb bilmaydi. Kognitiv grammatika esa ushbu mazmunning til shaklida qanday qurilganiga e'tibor beradi. Demak, nazariyalar o'rtasidagi farq ko'proq ularning tahlil nuqtasi bilan bog'liq.

O'lchov birliklari mazkur masalani ko'rsatish uchun ayniqsa qulay materialdir. Bir qarashda metr, kilometr, kilogramm, inch yoki mile singari birliklarning vazifasi aniq: ular muayyan kattalikni ifodalashga xizmat qiladi. Tabiiy nutqda esa bunday birliklar ko'pincha bevosita o'lchash vazifasidan chiqib, mavhum munosabatlarni ifodalay boshlaydi. Ingliz tilidagi *within an inch of success*, *miles away from reality* kabi birikmalarda o'lchov qiymatining o'zi emas, "juda yaqin" yoki "juda uzoq" degan baho muhim bo'ladi. O'zbek tilidagi *bir qadam oldinda*, *bir umr kutdim*, *zarracha shubha yo'q* kabi ifodalarda ham miqdor yoki o'lcham insonning subyektiv bahosi bilan birlashadi. Bunda qadam, umr

yoki zarracha har doim standart metrologik birlik emas, ammo ular miqdoriy-darajaviy mezon vazifasini bajaradi.

Shu sababli ushbu maqolada “o’lchov birligi” bilan bir qatorda “o’lchovga oid ifoda” atamasidan ham foydalaniladi. Bu farqlash nazariy aniqlik uchun zarur. Standart o’lchov birligi ma’lum miqdorni belgilaydigan me’yorlashtirilgan birlikdir. O’lchovga oid ifoda esa aniq me’yorga ega bo’lmisligi mumkin, biroq nutqda masofa, miqdor, davomiylik yoki darajani baholash uchun xizmat qiladi. Masalan, *bir qadam oldinda* birikmasidagi qadam real yurish harakati bilan bog’liq bo’lsa-da, mazkur kontekstda ustunlik darajasini ko’rsatadi. Zarracha shubha yo’q birikmasida esa zarra minimal miqdor modeli orqali ishonchning mutlaq darajaga yaqin holatini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili

Kognitiv lingvistika doirasida o’lchov birliklarini o’rganish til birliklarining faqat nominativ yoki miqdoriy vazifasini emas, balki ularning inson tajribasi, tafakkuri va konseptualizatsiya jarayonlari bilan aloqasini ham aniqlashni talab etadi. Mazkur masala bo’yicha mavjud nazariy qarashlar o’lchov ma’nosining ko’p qatlamli tabiatini ko’rsatadi. Xususan, Lakoff va Johnson konseptual metafora orqali konkret tajribaning mavhum tushunchalarni anglatishdagi rolini ochib bergan bo’lsa, Fillmore freym semantikasi orqali leksema ma’nosini uni faollashtiruvchi bilimlar tizimi bilan bog’laydi. Lakoff kategoriyalarning prototipik va notekis tuzilishini asoslab, til birliklarini markaziy va periferik a’zolar sifatida ko’rishga imkon beradi. Langacker esa grammatik shakl va konseptual mazmunning uzviylikini ko’rsatib, ma’noning konkret konstruksiyada shakllanishiga e’tibor qaratadi. Evans va Green mazkur yo’nalishlarni kognitiv lingvistikaning umumiy nazariy doirasida tizimlashtiradi.

Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi o’lchov birliklarining ko’chma va mavhum ma’nolarini tushuntirish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Mualliflar metaforani oddiy stilistik bezak sifatida emas, balki inson tafakkurini tashkil etuvchi konseptual mexanizm sifatida ko’radilar. Ularning yondashuvida insonning kundalik tajribasi va jismoniy muhit bilan munosabati mavhum tushunchalarni tashkil etuvchi konseptual tizimga ko’chadi. Xususan, fazoviy munosabatlarga asoslangan konseptual modellar insonning tana tajribasi bilan bog’liq holda shakllanishi qayd etiladi [4, 6-15 b]. Keyingi tahlillar ham *Metaphors We Live By* asarining asosiy g’oyasi metaforaning inson tafakkuri va konseptual tizimi bilan bog’liqligini ta’kidlaganini ko’rsatadi.

Mazkur nazariy qarashlar o’lchov birliklariga tatbiq etilganda, masofa, kattalik, miqdor va yo’l kabi konkret tajribalar vaqt, daraja, ustunlik, yaqinlik va uzoqlik kabi mavhum munosabatlarni anglatishga asos bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi. Masalan, ingliz tilidagi *within an inch of success* birikmasida *inch* real uzunlikni o’lchash vazifasidan chiqib, muvaffaqiyatga juda yaqinlikni bildiradi. Bu holatda kichik fizik masofa yuqori darajadagi konseptual yaqinlikni anglatish vositasiga aylanadi. Xuddi shuningdek, *miles away from reality* ifodasida katta fazoviy masofa fikr yoki tasavvur bilan real voqelik o’rtasidagi katta tafovutni ifodalash uchun ishlatiladi. Demak, o’lchov birligining semantik imkoniyati uning standart qiymati bilan cheklanmay, insonning fazoviy tajribasi asosida kengayadi. Lakoff va Johnsonning fazoviy orientatsiyalar jismoniy tajribadan kelib chiqishi haqidagi qarashlari bunday tahlil uchun nazariy asos beradi [4, 14-15 b].

Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora yondashuvining yana bir muhim jihati shundaki, konkret va mavhum sohalar o’rtasidagi munosabat tasodifiy emas, balki tizimli xarakterga ega. Shu sababli o’lchov birliklarining ko’chma qo’llanishlarini alohida-alohida stilistik holatlar sifatida emas, balki ma’lum konseptual modelning namoyon bo’lishi sifatida ko’rish mumkin. Masofa orqali yaqinlik yoki uzoqlikni, yo’l orqali taraqqiyot va maqsadga erishishni, miqdor orqali darajani anglatish ana shunday modellar sirasiga kiradi. Bunday qarash o’lchov birliklarini kognitiv jihatdan tahlil qilishda ularning literal ma’nosidan mavhum ma’noga o’tish mexanizmini aniqlash imkonini beradi [4, 3-6 b].

O’lchov birliklarining semantik xususiyatlarini chuqurroq ochishda Fillmorening freym semantikasi alohida ahamiyatga ega. Fillmore til birliklarining ma’nosini alohida, izolyatsiyalangan birlik sifatida emas, balki muayyan vaziyat yoki bilimlar tizimi bilan bog’liq holda tushuntiradi. Uning 1982-yildagi “Frame Semantics” maqolasi *Linguistics in the Morning* Calm to’plamida 111–137-betlarda nashr etilgan.

Freym yondashuvi o’lchov birliklarining kontekstual ma’nosini aniqlashda ayniqsa muhimdir. Chunki muayyan o’lchov birligi ishtirok etgan ifodaning mazmuni faqat o’lchovning o’ziga emas, balki ushbu birlik bilan bog’liq vaziyat, ishtirokchilar, maqsad, chegaralar va baholash mezonlariga ham bog’liq bo’lishi mumkin. Masalan, *within an inch of success* ifodasida *inch*ning kichik uzunlik birligi ekanini bilish uning to’liq mazmunini ochib bermaydi. Ifoda muvaffaqiyatga intilish, maqsadga erishish, yakuniy chegara va subyektning ushbu chegaraga yaqinlashishi

haqidagi bilimlarni ham faollashtiradi. Shu jihatdan freym semantikasi konseptual metafora orqali aniqlangan “masofa-yaqinlik” munosabatini konkret vaziyat va bilimlar tizimi bilan to’ldiradi.

Fillmorening qarashlari o’lchov birliklarini kontekst asosida o’rganish zarurligini kuchaytiradi. Bir xil birlik turli vaziyatlarda turlicha freymni faollashtirishi mumkin. Masalan, *mile* fizik masofani o’lchashda metrik qiymatni bildirsa, metaforik konstruksiyada voqelikdan uzoqlik, fikrlar o’rtasidagi tafovut yoki kommunikativ masofani ifodalashi mumkin. Shuning uchun o’lchov birliklarini o’rganishda “bu birlik nimani o’lchaydi?” degan savol bilan bir qatorda “u qanday vaziyatni faollashtirmoqda?” degan savolni ham qo’yish zarur. Freym semantikasi aynan shu ikkinchi savolga javob berish uchun metodologik imkoniyat yaratadi [2, 111–137 b].

Lakoffning kategoriyalashga oid qarashlari o’lchov birliklari tarkibini aniqlash va ularning kategoriyadagi o’rnini belgilash masalasida muhim ahamiyatga ega. *Women, Fire, and Dangerous Things* asarida kategoriyalar inson bilimlarini tashkil etuvchi idealizatsiyalangan kognitiv modellar bilan bog’lanadi. Asarning mazkur masalaga bag’ishlangan qismlarida kategoriyalarni qat’iy va mutlaq chegaralarga ega bo’lgan sinflar sifatida tushunishdan ko’ra, ularning prototipik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olish zarurligi asoslanadi [3, 45–75 b]. Xususan, Lakoff idealizatsiyalangan kognitiv modellar insonning bilimni tashkil etishida muhim rol o’ynashini ta’kidlaydi [3, 68-69 b].

Mazkur yondashuv o’lchov birliklarining ichki tarkibini markaziy va periferik qatlamlarga ajratish imkonini beradi. Metr, kilometr, kilogramm, inch va mile kabi standartlashtirilgan birliklar o’lchov kategoriyasining markaziy a’zolari sifatida qaralishi mumkin. Ularning umumiy xususiyati aniq me’yor, o’lchash obyekti va belgilangan qiymatga ega ekanligidir. Biroq *qadam, umr, zarra* kabi birliklar ayrim kontekstlarda miqdor, masofa, davomiylik yoki darajani ifodalashi mumkin bo’lsa-da, ularni har bir holatda standart o’lchov birligi sifatida baholash mumkin emas. Shu sababli o’lchov kategoriyasining chegaralari prototipik yondashuv asosida aniqlanishi maqsadga muvofiq [3, 45–52 b, 68–75 b].

Bu jihat o’lchov birliklarini o’rganishda terminologik aniqlikni ham ta’minlaydi. Standart metrologik birlik bilan o’lchov ma’nosini yuzaga keltiruvchi periferik leksik birlikni farqlash zarur. Masalan, *bir qadam oldinda* birikmasidagi *qadam* aniq fizik masofani belgilash uchun ishlatilmaydi. U ustunlik yoki rivojlanish darajasini ifodalovchi konseptual vositaga aylanadi. Xuddi shuningdek, *bir umr kutdim* ifodasida *umr* kalendar birlik sifatida emas, balki vaqtning subyektiv ravishda nihoyatda uzoq davom etganini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. Demak, kategoriyalash nazariyasi o’lchov birliklarining faqat “bor yoki yo’qligi”ni emas, balki ularning o’lchov kategoriyasidagi darajali o’mini aniqlashga imkon beradi [3, 68–75 b].

Langackerning kognitiv grammatikasi o’lchov ma’nosining shakllanishida grammatik konstruksiyaning rolini ochib beruvchi muhim nazariy manbadir. Kognitiv grammatika til shakli va mazmunini qat’iy ajratib qo’yishdan ko’ra, grammatik qurilmalarning konseptual mazmunini tashkil etishdagi ishtirokiga e’tibor qaratadi. Shu sababli o’lchovga oid leksemani faqat lug’aviy ma’nosi asosida emas, balki uning qanday konstruksiyada qo’llanganini hisobga olgan holda tahlil qilish zarur. Bu yondashuv o’lchov birliklarining bir xil shaklda turli kontekstlarda turlicha semantik profilga ega bo’lishini izohlash imkonini beradi.

Masalan, *qadam* leksemasi *bir qadam tashlamoq, bir qadam oldinda* va *bir qadam qoldi* konstruksiyalarida turlicha konseptual mazmunni faollashtiradi. Birinchi holatda uning jismoniy harakat bilan bog’liq mazmuni ustun bo’lsa, ikkinchi holatda u ustunlikni ifodalovchi mavhum o’lchov mezoniga aylanadi. Uchinchi holatda esa maqsadga yoki hodisaning sodir bo’lishiga yaqinlik mazmuni kuchayadi. Bunday misollar o’lchov birliklarining ma’nosi faqat leksemaning o’zida emas, balki uning grammatik va konstruktiv muhitida ham shakllanishini ko’rsatadi [5].

Evans va Greenning kognitiv lingvistika bo’yicha umumlashtiruvchi yondashuvi mazkur nazariyalarni yaxlit metodologik doirada ko’rish imkonini beradi. Ularning 2006-yilda nashr etilgan qo’llanmasi kognitiv semantika va kognitiv grammatikaning asosiy yo’nalishlarini tizimli ravishda yoritadi hamda konseptual metafora, konseptualizatsiya, ma’no va grammatik tuzilish o’rtasidagi munosabatlarni kengroq kontekstda ko’rib chiqadi. Asar 856 betdan iborat bo’lib, kognitiv lingvistikaning turli nazariy yo’nalishlarini qamrab oladi [1].

Evans va Greenning umumlashtiruvchi qarashlari o’lchov birliklarini tadqiq qilishda alohida nazariyalarni parallel ravishda qo’llash emas, balki ularning funksional imkoniyatlarini o’zaro bog’lash zarurligini ko’rsatadi. Bunda konseptual metafora o’lchovga oid birlikning konkret tajribadan mavhum sohaga ko’chish mexanizmini ochib beradi; freym semantikasi ushbu birlik faollashtiradigan bilimlar majmuini aniqlaydi; kategoriyalash nazariyasi birlikning o’lchov kategoriyasidagi maqomini belgilaydi; kognitiv grammatika esa mazkur ma’noning konstruksiya va grammatik shakl orqali qanday voqelanishini tushuntiradi [1].

Mazkur manbalarni umumlashtirish o'ldov birliklarining kognitiv tabiatini bir necha o'ldov bog'liq qatlamlarda ko'rish imkonini beradi. Birinchi qatlamda insonning bevosita jismoniy tajribasi turadi. Inson masofa, yaqinlik, uzoqlik, kattalik, miqdor, harakat va vaqt kabi hodisalarni avvalo kundalik faoliyati orqali anglaydi. Ikkinchi qatlamda ushbu tajribaning mavhum tushunchalarni ifodalashga ko'chishi kuzatiladi. Uchinchi qatlamda birlik bilan bog'liq fon bilimlari va vaziyat modeli faollashadi. To'rtinchi qatlamda esa tanlangan konseptual mazmun grammatik konstruksiya va konkret kontekst orqali shakllanadi [1; 2, 111–137 b; 4, 6–15 b; 5].

Shu nuqtayi nazardan, mavjud adabiyotlarda o'ldov birliklarini faqat miqdoriy qiymat asosida tavsiflash bilan cheklanib qolmaslik zarurligi ko'rinadi. Kognitiv yondashuv o'ldov birliklarining semantik imkoniyatlarini insonning tajribasi va konseptual tizimi bilan bog'laydi. Masofa "yaqinlik" yoki "uzoqlik"ni, yo'l "taraqqiyot" yoki "maqsad"ni, kichik miqdor esa "minimal daraja" yoki "deyarli yo'qlik"ni ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Natijada o'ldov birliklari matematik yoki metrologik vosita bo'lish bilan birga, baholovchi va ekspressiv semantikani shakllantiruvchi vositaga ham aylanadi [4, 3–15 b].

Ingliz va o'zbek tillarini qiyoslash nuqtayi nazardan ham ushbu nazariyalar muhim imkoniyatlar beradi. Masalan, *one step ahead* va *bir qadam oldinda* kabi ifodalarda bir xil tana va makon tajribasiga asoslangan konseptual model kuzatiladi. Har ikki holatda ham fazoviy oldinda turish mavhum ustunlikni ifodalaydi. Biroq *miles away from reality* kabi ifodaning o'zbek tilidagi tabiiy ekvivalenti aniq o'ldov birligini saqlamasdan, *haqiqatdan juda uzoq* shaklida berilishi mumkin. Bu esa ikki tilda konseptual modelning umumiyliigi bilan bir qatorda, uning leksik va grammatik ifodalanishidagi farqlarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida o'ldov birliklarining kognitiv talqinida integrativ yondashuvning metodologik jihatdan asoslanganligi ko'rinadi. Bunday yondashuv nazariyalarni shunchaki bir maqolada ketma-ket sanab o'tishni emas, balki ularning har biriga aniq tahliliy vazifa yuklashni nazarda tutadi. Konseptual metafora nazariyasi jismoniy tajriba va mavhum konsept o'rtasidagi bog'lanishni, freym semantikasi vaziyat va bilimlar tizimini, kategoriyalash nazariyasi birliklarning kategoriya ichidagi maqomini, kognitiv grammatika esa grammatik va konstruktiv voqelanishni izohlashi mumkin [1; 2, 111–137; 3, 68–75; 4, 6–15; 5].

Shunday qilib, o'ldov birliklarini kognitiv jihatdan o'rganish uchun mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish quyidagi metodologik ketma-ketlikni asoslash imkonini beradi: JISMONIY TAJRIBA → KONSEPTUAL KO'CHISH → FREYM BILIMLARI → KATEGORIYAVIY TALQIN → GRAMMATIK VOQELANISH → KONTEKSTDAGI MA'NO. Ushbu modelda har bir bosqich alohida nazariyaning kuchli tomoniga tayanadi. Shu bilan birga, bosqichlar real nutqda bir-biridan qat'iy ajralgan holda emas, o'ldov ta'sirda faoliyat yuritadi. Bu esa o'ldov birliklarining bevosita, ko'chma, baholovchi va kontekstual ma'nolarini kompleks ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

Umuman, ko'rib chiqilgan adabiyotlar o'ldov birliklarining kognitiv tabiatini tushuntirishda yagona nazariy yondashuv bilan cheklanmaslik lozimligini ko'rsatadi. Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi mazmunning konkret tajribadan mavhum sohaga ko'chishini tushuntirsa, Fillmorening freym semantikasi ushbu ma'noni shakllantiruvchi bilimlar tizimini ochib beradi. Lakoffning kategoriyalash nazariyasi o'ldov birliklarining markaziy va periferik qatlamlarini farqlashga yordam beradi, Langackerning kognitiv grammatikasi esa ma'noning grammatik konstruksiyada shakllanishini izohlaydi. Evans va Greenning umumlashtiruvchi qarashlari mazkur nazariyalarni kognitiv lingvistikaning yagona metodologik maydonida ko'rishga imkon beradi [1; 2, 111–137; 3, 45–75; 4, 3–15; 5].

Metodologiya

Tadqiqotning nazariy manba bazasi beshta fundamental ish bilan cheklangan. Bular Lakoff va Johnsonning *Metaphors We Live By* asari, Fillmorening *Frame Semantics* maqolasi, Lakoffning *Women, Fire, and Dangerous Things* monografiyasi, Langackerning *Foundations of Cognitive Grammar* kitobi hamda Evans va Greenning *Cognitive Linguistics: An Introduction* qo'llanmasidir. Mazkur manbalar tasodifiy tanlanmagan. Ular kognitiv lingvistikaning ushbu tadqiqot uchun muhim bo'lgan to'rtta tayanch masalasini – konseptual ko'chish, bilimlarning freym ko'rinishida tashkil topishi, kategoriyalash va grammatik konseptualashtirishni – izohlash imkonini beradi.

Tahlil uchun o'ldov ma'nosining turli ko'rinishlarini ko'rsatadigan inglizcha va o'zbekcha ifodalar olindi. Ingliz tilidan *within an inch of success*, *miles away from reality* kabi birliklar, o'zbek tilidan *bir qadam oldinda*, *bir umr kutdim*, *zarracha shubha yo'q* kabi ifodalar tanlandi. Misollar korpusdagi chastotani aniqlash uchun emas, nazariy modelning qanday ishlashini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Shu bois maqolada

ularning qaysi biri ko'proq yoki kamroq ishlatilishi haqida statistik xulosa chiqarilmaydi.

Tadqiqotda tavsifiy tahlil, qiyosiy tahlil, konseptual tahlil va freym tahlili birgalikda qo'llandi. Tavsifiy tahlil o'ldovga oid birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillarida bir xil yoki yaqin tajriba asosida shakllangan birliklarni solishtirish imkonini berdi. Konseptual tahlilda Lakoff va Johnson (1980) ta'riflagan manba va maqsad sohalari o'rtasidagi munosabat asosiy mezon bo'ldi. Freym tahlilida esa Fillmore (1982) ma'no muayyan vaziyat haqidagi bilimlar bilan bog'liq holda anglanishi haqidagi qarashlari tayanch sifatida olindi.

Kognitiv kategoriyalash masalasida Lakoffning (1987) prototipik tuzilish haqidagi qarashlari hisobga olindi. Bu yondashuv standart o'ldov birliklari bilan o'ldovlash yoki darajalash vazifasini bajaradigan periferik birliklarni bir xil maqomda ko'rmaslikka yordam beradi. Kognitiv-grammatik tahlilda Langacker (1987) taklif qilgan konseptual qurish tamoyiliga tayanildi. Shu asosda bitta leksema turli sintaktik qurilmada kelganda uning qaysi ma'no tomoni oldingi planga chiqishi kuzatildi.

Tahlil jarayoni to'rt ketma-ket savol asosida tashkil qilindi. Birinchidan, birlikning bevosita tajribaviy yoki lug'aviy asosi nimadan iborat? Ikkinchidan, ushbu asos mavhum ma'noga qanday yo'l bilan o'tgan? Uchinchidan, ifodani tushunish uchun qanday fon bilimlari zarur? To'rtinchidan, mazkur ma'no qaysi grammatik qurilma va kontekstda yuzaga chiqmoqda? Aynan shu ketma-ketlik maqolada taklif qilinayotgan integrativ modelning metodik asosini tashkil etadi.

Natijalar

Nazariy manbalarni qiyoslab o'rganish shuni ko'rsatdiki, kognitiv lingvistikaning mazkur to'rtta yo'nalishi bir xil hodisani takroran izohlashdan ko'ra, ma'no shakllanishining turli tomonlarini ochib beradi. Lakoff va Johnson (1980) uchun asosiy masala bir tajriba sohasi vositasida boshqa, nisbatan mavhum sohani anglashdir. Fillmore (1982) uchun esa til birligi faollashtiradigan bilimlar majmui markaziy o'rinda turadi. Lakoff (1987) kategoriyalar ichki tuzilishining notekisligini, ya'ni barcha a'zolar bir xil darajada markaziy bo'lmasligini ko'rsatadi. Langacker (1987) esa grammatik shaklning o'zi ham ma'noni tashkil etishda ishtirok etishini ta'kidlaydi.

Bu farqlarni o'ldovga oid birliklarda aniq ko'rish mumkin. Masalan, *within an inch of success* ifodasida *inch* so'zining literal ma'nosi kichik uzunlik birligi bilan bog'liq. Kontekstda esa real uzunlik o'ldovlanmaydi; asosiy mazmun – muvaffaqiyatga juda yaqin qolganlik. Konseptual metafora nazariyasi bu holatni KICHIK MASOFA – YUQORI DARAJADAGI YAQINLIK munosabati orqali izohlaydi. Biroq ifodaning to'liq talqini uchun muvaffaqiyatning o'zi, unga intilayotgan subyekt, erishish jarayoni va yakuniy chegara haqidagi bilimlar ham kerak bo'ladi. Bu qismini freym semantikasi yaxshiroq tushuntiradi.

Shu tarzda, konseptual metafora "ma'no qaysi tajriba asosida ko'chgan?" degan savolga javob bersa, freym semantikasi "mazkur ifodani tushunish uchun yana nimalarni bilish kerak?" degan savolni ochadi. Kognitiv grammatika esa "ushbu mazmun til shaklida qanday qurilgan?" degan masalani tahlil qiladi. Kategoriyalash nazariyasi esa birlikning "o'ldov" kategoriyasidagi o'rinni aniqlashga yordam beradi. Natijada to'rtta nazariya bitta murakkab hodisani turli tomondan yoritadigan vositalarga aylanadi.

Tahlilda aniqlangan ikkinchi muhim jihat "o'ldov birligi" tushunchasining ichki jihatdan bir xil emasligidir. Metr, kilometr, kilogramm, inch, mile kabi birliklar aniq me'yor va belgilangan qiymatga ega bo'lgani sababli kategoriya markaziga yaqin turadi. Qadam, umr, zarra kabi birliklar esa ayrim kontekstlarda o'ldovlash yoki darajalash vazifasini bajaradi, ammo ular har bir qo'llanishida standart metrologik birlik hisoblanmaydi. Lakoffning (1987) kategoriyalash haqidagi qarashlari aynan shu notekislikni tushuntirishga imkon beradi.

Masalan, *bir qadam oldinda* birikmasida qadam real masofani aniq o'ldovlamaydi. U raqobat yoki rivojlanishdagi kichik, lekin sezilarli ustunlikni ifodalaydi. Bir umr kutdim ifodasida umr vaqt birligi sifatida kalendar o'ldoviga aylantirilmaydi; u kutishning subyektiv ravishda juda uzoq tuyulganini bildiradi. Zarracha shubha yo'q birikmasida esa zarra real jismi obyekti bo'lmay, minimal miqdor tasavvuriga tayangan holda "hech qanday shubha yo'q" ma'nosini kuchaytiradi.

Shu sababli o'ldovga oid leksikani ikki qatlamda ko'rish maqsadga muvofiq: birinchi qatlamni me'yorlashtirilgan o'ldov birliklari, ikkinchi qatlamni esa miqdor, masofa, davomiylik yoki darajani baholashga xizmat qiladigan periferik birlik va konstruksiyalar tashkil etadi. Bunday ajratish "o'ldov" tushunchasini haddan tashqari kengaytirib yubormaydi, ayni paytda tabiiy nutqda miqdoriy munosabatlarning qanday ifodalanishini to'liqroq ko'rsatadi.

O'ldovga oid ko'plab metaforik ifodalarning ildizida insonning makon va miqdor haqidagi oddiy tajribasi yotadi. Inson yaqin va uzoq, oldin va orqa, katta va kichik, ko'p va kam singari farqlarni avvalo tanasi

va kundalik faoliyati orqali o'zlashtiradi. Lakoff va Johnson (1980)ning asosiy g'oyalaridan biri ham shuki, mavhum sohalarning katta qismi ana shunday nisbatan konkret tajriba yordamida tushuniladi.

Ingliz tilidagi *miles away from reality* ifodasida katta fazoviy masofa fikr bilan haqiqat o'rtasidagi katta tafovutga tenglashtiriladi. O'zbek tilida buni *haqiqatdan juda uzoq* tarzida berish tabiiyroq. Bu yerda mile birligining o'zi saqlanmaydi, lekin "tafovut – masofa" modeli saqlanadi. Demak, muhim narsa son qiymati emas, masofa tasavvurining baholash vositasiga aylanganidir.

Bir qadam oldinda ifodasida esa yo'l bo'ylab oldinda turish ijtimoiy, intellektual yoki amaliy ustunlikka ko'chiriladi. Ingliz tilidagi *one step ahead* bilan yaqinlik shuni ko'rsatadiki, ayrim metaforik modellar umumiy tana tajribasiga tayangani uchun tillar o'rtasida ham sezilarli o'xshashlik kuzatilishi mumkin. Bu holat kognitiv metaforani faqat milliy-madaniy farq bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi. Madaniy farq ko'proq qaysi obrazlarning tez-tez tanlanishi, qaysi shaklning tilda odatiy tus olishi va qanday kontekstda faollashishi bilan namoyon bo'ladi.

Zarracha shubha yo'q ifodasi boshqa turdagi ko'chishni namoyon qiladi. Bu yerda minimal jismoniy miqdor minimal mavhum darajaga asos bo'ladi. Zarracha so'zi shubhaning real miqdorini o'lchamaydi, lekin "eng

oz miqdor ham mavjud emas" degan bahoni kuchaytiradi. Shunday qilib, o'lchov ma'nosi ko'p hollarda matematik aniqlikdan baholovchi semantikaga o'tadi.

O'lchovga oid birliklarni faqat alohida so'z darajasida tahlil qilish ham yetarli emas. Langacker (1987)ning kognitiv grammatikasi ma'no grammatik tuzilish bilan birga shakllanishini ko'rsatadi. Bir xil leksema turli konstruktiviyada kelganda uning turli jihati oldingi planga chiqishi mumkin.

Masalan, qadam so'zi *bir qadam tashlamoq, bir qadam oldinda va bir qadam qoldi* kabi birikmalarda uch xil ma'no yo'nalishini yuzaga keltiradi. Birinchi holatda real jismoniy harakat ustun turadi. Ikkinchi holatda qadam ustunlik darajasini ifodalaydi. Uchinchi holatda esa real masofa bilan bir qatorda maqsadga yetish yoki hodisaning sodir bo'lishiga yaqinlik ma'nosi ham yuzaga kelishi mumkin. Demak, leksemaning imkoniyatlarini anglash uchun u qatnashgan butun konstruktiviyani hisobga olish zarur.

Bu natija integrativ yondashuv uchun muhim: konseptual ko'chish ma'noni tushuntirishning faqat bir bosqichi, freym bilimlari ikkinchi bosqichi, grammatik qurilish esa uchinchi bosqichidir. Mazkur bosqichlardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, ifodaning tabiiy nutqdagi vazifasi to'liq ochilmaydi.

1-jadval

O'lchov birliklarini tahlil qilishda kognitiv nazariyalarning vazifalari

Nazariy yo'nalish	Asosiy savol	Tahlildagi vazifasi	Integrativ modeldagi o'rni
Konseptual metafora nazariyasi	Jismoniy tajriba mavhum sohaga qanday ko'chadi?	Masofa, hajm va miqdor asosidagi ko'chma ma'noni aniqlaydi	Konseptual ko'chish bosqichi
Freym semantikasi	Ifoda qanday fon bilimlarini faollashtiradi?	Vaziyat, ishtirokchi, maqsad, chegara va baho kabi bilimlarni tiklaydi	Bilimlar tuzilishini aniqlash bosqichi
Kognitiv kategoriyalash	Birlik o'lchov kategoriyasida qanday o'rinni tutadi?	Markaziy va periferik birliklarni farqlashga yordam beradi	Kategoriya chegaralarini belgilash
Kognitiv grammatika	Mazmun grammatik qurilmada qanday shakllanadi?	Birlikning konstruktiviy tarkibida qaysi ma'no tomoni faollashishini ko'rsatadi	Grammatik voqelanish bosqichi

Muhokama

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'lchov leksikasini bitta nazariya doirasida talqin qilish tadqiqot imkoniyatini sun'iy ravishda toraytiradi. Buni alohida nazariyalarning zaifligi deb tushunish to'g'ri emas. Aksincha, har bir nazariya til ma'nosining ma'lum qatlamini chuqurroq yoritadi. Integrativ yondashuvning ehtiyoji aynan shu qatlamlarni bir izchil tahlilga birlashtirishdan kelib chiqadi.

Lakoff va Johnson (1980)ning konseptual metafora nazariyasi o'lchovga oid birliklarning mavhum ma'no kasb etishida asosiy boshlang'ich nuqtani beradi. Masofa, yo'l, miqdor yoki kattalik bilan bog'liq tajriba inson uchun bevosita va tushunarli bo'lgani sababli u vaqt, daraja, taraqqiyot yoki ijtimoiy munosabatlarni anglashga ko'chiriladi. Biroq shu bosqichning o'zida tahlilni yakunlash bir qator savollarni ochiq qoldiradi. Nega aynan shu kontekstda ma'lum obraz tanlangan? Qaysi ishtirokchilar va hodisalar nazarda tutilgan? Qaysi baho yoki kutilma muhim? Bu savollar freym darajasiga olib chiqadi.

Fillmorning (1982) freym semantikasi bunday vaziyatda til birligini uning ortidagi bilimlar tizimi bilan bog'lash imkonini beradi. Masalan, *within an inch of success* ifodasida "yaqinlik" ma'nosini bilishning o'zi kifoya qilmaydi. U muvaffaqiyatga yo'naltirilgan jarayon, subyekt, maqsad, yakuniy chegara va baholashni o'z ichiga olgan vaziyat doirasida tushuniladi. Shuning uchun freym tahlili metaforik ko'chishning kontekstdagi aniq mazmunini belgilashga yordam beradi.

Lakoffning (1987) kategoriyalash haqidagi qarashlari esa o'lchov leksikasining o'zini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Agar tadqiqot faqat xalqaro yoki milliy standartda belgilangan o'lchov birliklari bilan cheklansa, tabiiy tilda daraja va miqdorni bildiradigan ko'plab ifodalar tahlildan tashqarida qoladi. Shu bilan birga, barcha bunday birliklarni ham "o'lchov birligi" deb atash ilmiy aniqlikka zarar yetkazadi. Shuning uchun markaziy va periferik qatlamlarni ajratish maqbul yechimdir.

Langacker (1987) kognitiv grammatikasi integrativ modelning so'nggi muhim bo'g'inini beradi. Til birliklari nutqda alohida holda yashamaydi; ular konstruktiviyalar ichida faoliyat yuritadi. Birlikning qaysi xususiyati muhim bo'lishi grammatik shakl va nutq vaziyatiga bog'liq. Shunday ekan, konseptual va freym tahlildan keyin grammatik qurilish e'tiborga olinmasa, tadqiqot faqat lug'aviy ma'no doirasida qolib ketadi.

Shu asosda o'lchovga oid birliklarni o'rganish uchun to'rt bosqichli integrativ model taklif etiladi. Birinchi bosqichda birlikning bevosita tajribaviy asosi aniqlanadi: masofa, hajm, harakat, vaqt yoki miqdor. Ikkinchi bosqichda bu tajribaning mavhum sohaga ko'chish yo'li belgilanadi. Uchinchi bosqichda ifodani tushunish uchun kerak bo'lgan fon bilimlari va freym elementlari tiklanadi. To'rtinchi bosqichda esa mazmunning grammatik shakli va konkret kontekstdagi voqelanishi tahlil qilinadi.

Mazkur ketma-ketlikni quyidagicha ifodalash mumkin: JISMONIY TAJRIBA → KONSEPTUAL KO'CHISH → FREYM BILIMLARI → GRAMMATIK VOQELANISH → KONTEKSTDAGI MA'NO. Ushbu formulada bosqichlar qat'iy ajratilgan mustaqil jarayonlar emas. Real nutqda ular bir vaqtda faol bo'lishi mumkin. Tahlilda esa ulami ketma-ket ajratish ma'noning qaysi qatlami qaysi nazariya yordamida yaxshiroq izohlanishini aniq ko'rsatishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan modelning yana bir afzalligi ingliz va o'zbek materiallarini qiyoslashda namoyon bo'ladi. Masalan, *bir qadam oldinda va one step ahead* ifodalari juda yaqin konseptual modelga ega. Har ikki tilda yo'l bo'ylab oldinda turish mavhum ustunlikni ifodalaydi. Bunday holat umumiy tana tajribasining tillararo o'xshashlik yaratishi mumkinligini ko'rsatadi. Boshqa hollarda esa konseptual model o'xshash bo'lsa-da, leksik shakl farq qiladi. Miles away from reality o'zbek tilida *haqiqatdan juda uzoq* shaklida tabiiyroq eshitiladi; bu yerda aniq o'lchov birligi tushib qoladi, ammo konseptual masofa saqlanadi.

Demak, qiyosiy tadqiqotning vazifasi faqat "qaysi birlik qaysi birlikka teng?" degan savol bilan cheklanmaydi. Muhimroq masala – ikki tilda bir xil tajriba qanday konseptualashtirilgani, qanday bilimlar bilan bog'langani va qanday grammatik shaklda yuzaga chiqqanini aniqlashdir. Aynan shu nuqta integrativ yondashuvning qiyosiy lingvistik uchun amaliy qiymatini oshiradi.

Bundan tashqari, integrativ yondashuv o'lchov birliklarini faqat semantik ro'yxat sifatida emas, nutqda faol ishlaydigan dinamik tizim sifatida ko'rishga yordam beradi. Standart o'lchov qiymati til birligining tarixiy yoki lug'aviy asosi bo'lib qolishi mumkin, lekin real kommunikatsiyada u baholash, mubolag'a, yaqinlik, uzoqlik yoki daraja ma'nosini oladi. Shu sababli o'lchov leksikasi tahlilida lug'atdagi ta'rif bilan cheklanmasdan, birlikning kontekstda qanday ishlashiga e'tibor qaratish zarur.

Integrativlikni nazariyalar terminlarini ko'paytirish deb tushunish ham xato bo'ladi. Agar har bir konsepsiya o'z vazifasi aniq belgilanmagan holda ko'llansa, tahlil yanada murakkablashadi, lekin ilmiy natija kuchaymaydi. Shuning uchun ushbu maqolada integrativlikka funksional tamoyil sifatida qaraladi: har bir nazariya ma'no hosil bo'lishining aniq bir tomonini izohlash uchun jalb qilinadi. Bu yondashuv nazariy takrorlanishni kamaytiradi va tahlilning mantiqiy izchilligini oshiradi.

Shu jihatdan mazkur model o'lchov birliklari bo'yicha keyingi empirik tadqiqotlar uchun ham tayanch bo'lishi mumkin. Korpus materiallari jalb qilinganda, har bir misol avvalo literal yoki ko'chma qo'llanishga ajratilishi, keyin konseptual model, freym tarkibi va grammatik konstruktiviy bo'yicha tasniflanishi mumkin. Biroq hozirgi maqola nazariy xarakterga ega bo'lgani sababli bunday statistik xulosalar berilmaydi; bu yerda asosiy vazifa integrativ tahlilning metodologik

mantiqini belgilashdir.

Xulosa

Tadqiqot natijalari zamonaviy kognitiv lingvistikada integrativ yondashuvning yuzaga kelishi alohida nazariyalarning inqirozi bilan emas, ma'no hodisasining murakkab tabiati bilan bog'liq ekanini ko'rsatdi. Til birligining ma'nosi faqat lug'aviy mazmun yoki grammatik shakl bilan belgilanmaydi. Unda insonning tajribasi, kategoriyalash usuli, fon bilimlari va konkret nutq vaziyati birgalikda ishtirok etadi.

O'lchov birliklari bu holatni yaqqol namoyon qiladi. Ular bir tomondan aniq miqdor va masofani ifodalovchi me'yorlashtirilgan vositalardir. Ikkinchi tomondan esa tabiiy nutqda yaqinlik, uzoqlik, taraqqiyot, davomiylik, minimal daraja va baholash kabi mavhum munosabatlarni anglatishi mumkin. Shuning uchun ularni faqat metrologik qiymati asosida tavsiflash semantik imkoniyatlarning muhim qismini ochmay qoladi.

Maqolada konseptual metafora nazariyasi, freym semantikasi, kognitiv kategoriyalash va kognitiv grammatika o'zaro to'ldiruvchi tizim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 856 p.
2. Fillmore C. J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing, 1982. – P. 111–137.
3. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
5. Langacker R. W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 516 p.
6. Croft W., Cruse D. A. Cognitive Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 356 p.
7. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 375 p.
8. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. Vol. 1: Concept Structuring Systems. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – 495 p.

sifatida ko'rib chiqildi. Konseptual metafora jismoniy tajribaning mavhum ma'noga o'tish yo'lini ko'rsatadi. Freym semantikasi ifodani anglash uchun kerak bo'ladigan bilimlar majmuini tiklaydi. Kategoriyalash nazariyasi o'lchov kategoriyasining markaziy va periferik qatlamlarini ajratishga yordam beradi. Kognitiv grammatika esa mazmunning til shaklida qanday qurilganini izohlaydi.

Shu asosda JISMONIY TAJRIBA → KONSEPTUAL KO'CHISH → FREYM BILIMLARI → GRAMMATIK VOQELANISH → KONTEKSTDAGI MA'NO modeli taklif qilindi. Ushbu model o'lchovga oid birliklarni bosqichma-bosqich tahlil qilish imkonini beradi va ayniqsa ingliz hamda o'zbek tillarini qiyoslashda nazariy tayanch bo'la oladi.

Asosiy xulosa shundan iboratki, integrativ yondashuv turli kognitiv nazariyalarni sun'iy ravishda birlashtirishni anglatmaydi. Uning mohiyati – har bir nazariyaning kuchli tomonini ma'no hosil bo'lishining tegishli bosqichida qo'llashdir. Shu tarzda o'lchov leksikasining bevosita, ko'chma va kontekstga bog'liq ma'nolarini yaxlitroq va ilmiy jihatdan aniqroq talqin qilish mumkin.

9. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. Vol. 2: Typology and Process in Concept Structuring. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – 495 p.
10. Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 341 p.
11. Cruse D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 p.
12. Radden G., Dirven R. Cognitive English Grammar. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2007. – 374 p.
13. Langacker R. W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 p.
14. Croft W. Radical Construction Grammar: Syntactic Theory in Typological Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – 416 p.
15. Goldberg A. E. Constructions at Work: The Nature of Generalization in Language. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 280 p.
16. Gibbs R. W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 527 p.